

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



**IQTISODIY GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA ASOSLARI**

**FANINING O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi</b>	300 000	- Ishlab chiqarish- texnik soha
<b>Talim sohasi</b>	310 000	- Muhandislik ishi
<b>Talim yo'nalishlari</b>	5311500	- Geodeziya, kartografiya va kadastr (qurilish)
	5311500	- Geodeziya, kartografiya va kadastr (bino va inshootlar kadastri)

*Qarshi-2022*

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** **N.Irnazarova** – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi dots.

**Taqrizchilar:** **M.Bozorov** – QarMII “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi o‘qituvchisi.

**A.Jo‘rayev** - “O‘zdaverloyiha” DILI Qashvilyerloyiha bo‘linmasi loyiha bosh muhandisi

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil “\_\_\_\_\_” “\_\_\_\_\_”dagi “\_\_\_\_\_” - sonli bayonnomasi).

## **Kirish.**

«Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari» fanining Respublikamizga har tomonlama yetuk, jahon talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashda muhim o‘rn egallaydi. Uning o‘rganish obyekti keng va o‘lkan miqyosga ega bo‘lib, kichik bir hudud yoki mamlakatdan tortib, jahon bo‘ylab xo‘jalik tarmoqlarini joylanish xususiyatlarini tadqiq etadi. Fanning nazariy asosi bo‘lgan quyidagi tizim: Tabiat – jamiyat – ishlab chiqarish – atrof-muhitni muhofaza qilishlarni bir-biriga chambarchas bog‘langan holda o‘rganadi. Albatta, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish qonuniyatlarini, shakllarini, omillarini, dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasini shakllanishini yoritadi. Jhon va O‘zbekiston aholisini joylanishi, mehnat resurslarini bandlik muammolarini izohlaydi. Fanda O‘zbekistonga alohida e’tibor berilib, uning jahon tizimida tutgan o‘rni, tabiiy resurs salohiyati, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, infrastrukturasi, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlarini atroflicha o‘rganadi.

### **O‘quv fanining maqsadi va vazifalari**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – fanning nazariy asosi bo‘lgan quyidagi tizim: Tabiat – jamiyat – ishlab chiqarish – atrof-muhitni muhofaza qilishlarni bir-biriga chambarchas bog‘langan holda o‘rganadi. Albatta, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish qonuniyatlarini, shakllarini, omillarini, dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasini shakllanishini yoritadi

**Fanning vazifasi** -Jahon va O‘zbekiston aholisini joylanishi, mehnat resurslarini bandlik muammolarini izohlaydi. Fanda O‘zbekistonga alohida e’tibor berilib, uning jahon tizimida tutgan o‘rni, tabiiy resurs salohiyati, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, infrastrukturasi, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlarini atroflicha o‘rganadi.

### **Fan bo‘yicha talabaning bilim, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar.**

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Iqtisodiy geografiyaning nazariy asoslari va ilmiy uslublarini, ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, omillari va tamoyillari va qonunutatlarini, O‘zbekistonnig dunyo siyosiy xaritasida tutgan o‘rni, mehnat taqsimotida, iqtisodiy

aloqalari va mehnat taqsimoti, korxonalar ekologik holatiga baho berishni, davlat ekologik siyosatini anglashi, atrof-muhitni muhofaza qilishni bilishi, O'zbekistonni mintaqaviy vaziyatini tushunishi va optimallashtirish **muammolarini bilishi kerak**.

- Mintaqalar va mamlakatlarning geografik o'rni, tabiiy sharoit va resur slarga iqtisodiy-geografik baho bera olish; mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari va hududiy-geografik baho bera olish; aholini ekologik jihatdan himoyalash; tabiatni muhofaza qilishning hududiy asoslarini; atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro sifat standartlarini bilishi; O'zbekiston mintaqalaridagi ekologik vaziyatlarni igtimioy tizimga ta'siri va ularni optimallashtirish **muammolarini bilishi kerak**.

- Iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlsh, ladvallar tuzish, ularni iqtisodiy va geografik usullarini qo'llab tahlil qilish, kartografik materillardan foydalanish, ekologik uslublarini metodlarini amalda qo'llash, atrof-muhitni asrash tadbirlarini amalga oshirishni tashkil etish, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ekologik muammolarni hal etishni tashkil etish tashkiliy formalari bo'yicha olgan bilimlarini ish faoliyatida qo'llay olish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi.**

“Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari” fani tanlov fan hisoblanib, 8-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirishda o'quv rejasida rejalashtirilgan umumkasbiy (Kartografiya, geodeziya, Kadastr kartalarini loyihalash, tuzish va avtomatlashtirish va bosh.) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

Geodeziya kartografiya va kadastro ta'lim yo'nalishi uchun “Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari” fani mutaxassislik fanlardan hisoblanadi hamda “Matematika”, “Geodeziya”, “Kartografiya”kabi fanlar bilan o'zviy bog'liq.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni.**

«Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari» fanining respublikamizga har tomonlama yetuk, jahon talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashda

o‘rni kattadir. Uning o‘rganish obyekti keng va ulkan miqyosga ega bo‘lib, kichik bir hudud yoki mamlakatdan tortib, jahon bo‘ylab xo‘jalik tarmoqlarini joylanish xususiyatlarini tadqiq etadi.

### **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.**

Talabalarning “Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallari, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishlab chiqarishda mavjud holatlarning rasmlaridan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliyot darslarida mavzularga mos ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

## **ASOSIY QISM**

### **1 mavzu: Iqtisodiy geografiya fanining predmeti, tadqiqot uslublari, maqsadi va vazifalari.**

Iqtisodiy geografiya fanining predmeti va obyekti. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy yo‘nalishlari: tarmoq va mamlakatshunoslik, hududiy yo‘nalishlari, differensiyalashuvi va integratsiyalashuvi, uning joylanish va rivojlanish xususiyatlari. Asosiy ilmiy konsepsiylari: iqtisodiy geografik o‘rin, iqtisodiy rayonlashlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari, energiya ishlab chiqarish sikllari va boshqalar. Iqtisodiy geografiya fanining tadqiqot uslublari. Umumiy, geografik, iqtisodiy tadqiqot uslublar va yo‘nalishlar. Iqtisodiy geografiyaning fanlar tizimidagi o‘rni, aloqalari, tarmoqlarga bo‘linishi. Iqtisodiy geografiyaning «Iqtisodiy nazariya», «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi», «O‘zbekiston tarixi», «Jahon iqtisodiyoti», «Makro va mikro iqtisodiyot», «Statistika» kabi fanlar bilan bog‘liqligi.

### **2 mavzu: Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni hududiy joylashtirish va rivojlantirish qonuniyatlari, tamoyillari, shakllari va omillari**

Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirish qonuniyatlari, tamoyillari, shakllari va omillari to‘g‘risida tushuncha. Ishlab chiqarishni joylashtirishning oqilona, ixtisoslashtirgan holda, kompleks (majmuali) qonuniyatlari. Mujassamlashtirish, kooperatsiya, kombinatsiya joylashtirish shakllari. Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishning tabiiy, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik, bozor iqtisodiyoti omillari. Yangi iqtisodiy sharoitda hududiy ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishni takomillashtirish muammolari.

### **3 mavzu: Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi**

Dunyo siyosiy xaritasi haqida tushuncha. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining asosiy bosqichlari. Qadimgi dunyo va o‘rta asrlardagi dunyo siyosiy xaritasi. Buyuk

geografik kashfiyotlar va Yevropa mustamlakachilik bosqichining boshlanishi. Birinchi va ikkinchi jahon urushi ta'sirida dunyo siyosiy xaritasida yuz bergen siyosiy o'zgarishlar. Xalqaro munosabatlarda yangi davrning boshlanishi, MDH mamlakatlarini yuzaga kelishi va boshqa o'zgarishlar. Hozirgi dunyo mamlakatlarining davlat tuzumlari. Respublika va monarxiya boshqaruv shakllari. Dunyo mamlakatlarining toifalarga bo'linishi. Hududining kattaligi, aholi soni va dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi darajasi bo'yicha tiplarga ajrailishi. Gigant, katta, o'rtacha, kichik va juda kichik (mitti) davlatlarga bo'linishi.

#### **4 mavzu: Dunyo aholi geografiyasি**

Aholi soni, aholining qayta tiklanishi, «demografik siyosat», «demografik portlash», «demografik tanglik», «aholi migratsiyasi», «urbanizatsiya», «aglomeratsiya» tushunchalarining mazmuni. Materiklar va mamlakatlar bo'yicha aholining joylashishi va zichligi. Dunyo aholisining tabiiy o'sishi. Tashqi va ichki migratsiya. Aholining tarkibiy tuzilishi. Jinsiy, irqiy, milliy, diniy va yosh tarkibi. Dunyoning shahar va qishloq aholisi. Yuqori va kam darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar. Mehnat resurslari va ularning bandligi muammolari.

#### **5 mavzu: Dunyo xo'jaligi geografiyasи**

Dunyo xo'jaligi to'g'risida tushuncha, uning mazmun mohiyati. Dunyo xo'jaligining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. Xalqaro mehnat taqsimoti. Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar. Fan texnika taraqqiyoti (FTT) ning dunyo xo'jaligi rivojlanishiga, tarmoq va hududiy tuzilmalariga ta'siri. Dunyo xo'jaligi tuzilmasi. Dunyo sanoatining yetakchi tarmoqlari geografiyasи. Dunyo bo'yicha yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining joylanishi. Qishloq xo'jaligining joylanishi va rivojlanish xususiyatlari. Dunyo dehqonchiligi va chorvachiligi yetakchi tarmoqlarini joylanishi. Transportning asosiy turlari, dunyo ahamiyatidagi eng muhim quruqlik, dengiz va havo yo'llari. Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

#### **6 mavzu: O'zbekistonning jahon ho'jaligi tizimidagi o'rni.**

O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi o'zbek xal xayotida ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat barpo etish yo'lidagi eng muhum voqeadir. Yangilanish va tarqayotning o'zbek modeli. Demokratik jarayonlar va iqtisodiy islox qilishning asosiy tamoillari. Chuqur tarkibiy o'zgarishidagi yutuqlar. Iqtisodiyotning tarmoq vaxududiy tuzilishini qayta ko'rish. O'zbekistonning jahon hamjamoyatidagi nufuzli, O'zbekiston -turli xalqaro tashkilotlarning teng xuquqli a'zosi. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida, tashqi savdo aylanmasi. Iqtisodiy-geografik o'rni, maydoni va chegaralari.

O'zbekistonning subregionlarini tashkil etuvchi mamlakatlar guruhiga nisbatan mezon o'rnni baholash. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linish

### **7 mavzu: Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish sharoitida O'zbekiston axolisi va mehnat resurslari hamda bandligi muammolari.**

Demogirafik vaziyatning o'ziga hos hususiyatlari va demogirafik siyosat. Axolining jinsiy va yosh tarkibi, ularni mehnat resurslariga ta'siri. Iqtisodiy faol axoli. Savodhonlik darajasi. Axolining "sifati". Jalon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida aholining ichki va tashqi migratsiyasi. Eski va yangi sug'oeiladigan mintaqalar o'rtasida aholining hududiy qayta taqsimlanishi. Shaxar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya darajasi va sur'atlari. Qadimgi va yangi shaharlar, qishloqlar joylashuvi. Aholi joylashuvini takomillashtorishva boshqarish muammolari. Demogirafik salohiyat va aholi muammosi. Bandlikning samarali natijalari va aholining ta'lim darajasi, kasb mahoratini oshirish muammolari

### **8 mavzu: Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishlarida, O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligi geografiyası**

Respublika iqtisodiyotini rivojlanishida qishloq xo'jaligining tutgan o'rni. Yangi turdag'i agrar munosabatlarning shakllanishi. Dehqon fermer xo'jaliklari. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning intensiv va ekstensiv xarakteri. Respublikaning yer fondi va uning tuzilishi. Qishloq xo'jaligining tarmoqlar tuzilishi. Dehqonchilik geografiyası. Sug'oriladigan maydonlarda ekinlar tarkibi. Paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik, polizchilik, sabzovatchilik tarmoqlari. Chorvachilik geografiyası. Qoramolchilik, qo'ychilik va pillachilik. Qishloq xo'jaligi xom ashyolarini qayta ishslash muammolari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrar majmuani rivojlantirish istiqbollari

### **9 mavzu: O'zbekiston Respublikasining transporti, infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari**

Transportning respublika xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Transport tarmoqlarining shakllanishi va ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Temir yo'l va avtomobil yo'llari transporti. Quvur transporti va uning ahamiyati. Havo transporti. Infratuzilmalar, ularning xo'jalikning hududiy tuzilishiga ta'siri. Turizm va dam olish sohasi. «Buyuk Ipak yo'li» ning qayta tiklanishi - muhim xalqaro turistik yo'nalishdir. Tashqi iqtisodiy aloqalar. O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida mahsulotlar tuzilishi va ularning tarkibi. Eksport va import mahsulotlari. O'zbekistonning yirik savdo sheriklari geografiyası. Qo'shma korxonalarning tashkil topishi va xorijiy investitsiyalar.

### **10 mavzu: O'zbekiston iqtisodiy geografik rayonlari va yirik tabiiy iqtisodiy rayonlar**

Iqtisodiy rayonlashtirish haqida tushuncha. «Rayon», «Zona (hudud)», «Areal» tushunchalari. Iqtisodiy geografik rayon majmuasi va dinamik tushuncha ekanligi. Iqtisodiy rayonlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Rayonlashtirishning differensial, tarkibiy va funksional turlari. O‘zbekistonda tarkib topgan hozirgi iqtisodiy rayonlar: Toshkent, Farg‘ona, Mirzacho‘l, Samarcand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro-Qizilqum, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari, ularning asosiy ko‘rsatkichlari

### **11 mavzu: Ekologiya fanining predmeti, maqsadi, uslubiy va vazifalari**

Bugungi kunda saylov haqidagi qonunchiligidan o‘zgartirishlar kiritildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi o‘rinlar soni 120 tadan 150taga ko‘paytirildi. Deputatlik o‘rinlari soniga O‘zbekiston Ekologik harakatidan saylanadigan deputatlar uchun 15 ta o‘rin ajratildi. Bu esa bugung kunda ekologiyaning ahamiyati barcha sohada ortayotganligini mutloq tasdiqi hisoblanadi.

Ekologiya fanining predmeti, tadqiqot obyekti. Maqsadi va vazifalari. Tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiiy muhitni optimallashtirish tushunchalari. Ekologiya fanining ilmiy tadqiqot uslublari. Ekologiya tarmoqlari to‘g‘risida tushuncha. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ekologiya fanining asosiy vazifalari. Ekologiyaning iqtisodiy – geografiya va boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

### **12 mavzu: Biosfera, ekologik omillar va ekologik tizimlar**

Biyofera haqida tushuncha. Biyofera haqidagi tasavurlarning shakillanishi va rivojlanishi. Biyoferaning chegaralari. Biyoferada moddalarning aylanma harakati. Biyoferadagi asosiy biyokimyoviy sikllar. Ekologik tizimning tuzilishi. Ekologik omillar va ularning tasnifi. Ekotizimlar tarkibi. Ekotizimlarning rivojlanishi va o‘zgarishi. Tabiatga antropogen ta’sirning miqyoslari va uning oqibatlari. Noosferaning shakillanishi va rivojlanishi. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. Tabiatning muhofaza qilishning ahamiyati va vazifalari.

### **13 mavzu: Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar**

Tabiat, jamiyat, inson va atrof-muhiti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar muammosi. Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining evolyutsiyasi. Tabiat jamiyatning yashash muhiti, uning moddiy va ma’naaviy ehtiyojlarini qondirish manbai. Tabiatning bir butunligi. Insonning tabiatga ta’siri miqyosining ortib borish sabablari. Tabaitni o‘zgartirishda tabiat qonunlari buzilmasligining ahamiyati. Tabiatni o‘zgartirishning ekologik oqibatlari.

### **14 mavzu: Geoekologik muammolar va ularning yechimi**

Geoekologik muammolar to‘g‘risida tushuncha. Dunyo miqyosidagi geoekologik muammolar. Yer shari iqlimining isib borishi. Azon tuynugi. Geoekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik. Sayyoraviy, hududiy,

mahalliy geoekologik muammolar. Xalqaro konvensiya, bitim va shartnomalar. Xalqaro tabiatni muhofaza qilishda O‘zbekiston Respublikasining o‘rni. Ekologik monitoring va bashoratning ahamiyati.

### **III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning omillari va tamoillari.
2. Hozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasi
3. Dunyo xo‘jaligi geografiyasi
4. O‘zbekistonning jahon xo‘jaligi tizimidagi o‘rni
5. O‘zbekistonning tabiiy resurslari salohiyati
6. O‘zbekiston aholisi va mehnat resurslari, ular bandligi muammolari. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O‘zbekiston sanoati geografiyasi.
7. Iqtisodiy tarmoqlarini tarekibiy o‘zgartirishlarida, O‘zbekiston taransporti, infrastruktura, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi. O‘zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari yirik tabiiy iqtisodiy mintaqalari
8. Biyosfera , Ekologik omillar va ekologik tizimlar
9. Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar
10. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi.
11. Tabiat komponentlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning ekologik iqtisodiy asoslari

Amaliy mashg‘ulotlar laboratoriya xonalarida barcha uskunalar, o‘lchov asboblari va barcha kerakli jihozlar bilan jihozlangan xonalarda bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va shu o‘tiladigan amaliy usullar yordamida barcha kerakli extiyot choralarini qo‘llagan holda o‘tilishi, amaliy mashg‘ulot mavzusidan kelib chiqib ishlar amalga oshirilishi kerak.

#### **III. I. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

Fan bo‘yicha laboratoriya ishlari namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

#### **III. II. Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar**

Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

### **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

1. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiy geografiya va ekologiya fanining asoslari
2. Xar bir yilga berilayotgan nomlar va shu asosida chikarilayotgan Davlat dasturlari va iktisodiy rivojlanish dinamikasi
3. Xozirgi zamon dunyo siyosiy va iktisodiy kartasini uzgarish xususiyatlari
4. Dunyo xo‘jaligi geografiyasi tarkibi va xududiy joyylanishi
5. Iqtisodiy isloxatlar sharoitida Uzbekistonning jaxon xujaligi tizimidagi urni

6. O‘zbekistonning tabiiy resurs saloxiyati, ulardan okilona foydalanish, muxofaza kili shva takror ishlab chikarish
7. Uzbekiston axolisi va mexnat resurslari, ular bandligi muammolari
8. Sanoatni modernizatsiya kilish sharoitida Uzbekiston sanoati geografiyasi
9. Iktisodiyotning tarkibiy uzgarishlari sharoitida Uzbekiston kishlok xujaligi geografiyasi
10. O‘zbekiston transport iva tashki iktisodiy alokalari
11. Uzbekistonning iktisodiy rayonlari va mintaqalari
12. Biosfera ekologiyasi
13. Atmosfera ekologiyasi
14. Gidrosfera ekologiyasi
15. Yer resurslari ekologiyasi

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar, taqdimot materiallari, Google Apps (Google ilovalarda guruh bo‘lib hujjat, jadval, prezentatsiya va testlar tayyorlash), SWOT (muammoni SWOT-tahlil qilish) tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

### **Dasturning informatsion – metodik ta’minoti**

“Иқтисодий география ва экология асослари” фанини ўқитиши жарёнида ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron –didaktik texnologiyalaridan;
- amaliy mashg‘ulotlarda aqliy, guruhli fikrlash va boshqa pedagogik texnologiyalardan;
- masalalarini yechishda kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnolgiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan

### **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abirkulov K.N. Iqtisodiy geografiya. Darslik.-T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2008 -272 bet
2. Abirkulov K.N., Xojimato A.N., Rajabov N Ekoliya. Ukuv kullanma.-T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2006 -185 bet
3. Abirkulov K.N., Xojimato A.N., Rajabov N. Atrof muxitni muxofaza kilish. O‘kuv kullanma. T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2006 -249 bet
4. Ergashev A. Ekoliya. Darslik.-T.: Uzbekiston 2007-248 bet
5. Baratov R. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg‘ulotlar”. Toshkent "Cho‘lpon", 2005 y.
6. Tojiyeva Z.N. “Aholi geografiyasi”. Toshkent "Noshir", 2019 y

#### **Qo’shimcha adabiyotlar**

1. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi «Yerlarni muxofaza kilish va ulardan okilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish,

geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora- tadbirlari tugrisida» PF-5065-son farmoni.

2. Uzbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat kumitasining 2014 yil 12 sentabrdagi “Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma’lumotlarining tarkibi va ularni takdim etish tartibi tugrisidagi Nizomni tasdiklash xakida” gi 12-sonli karori.

3. Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida 2017 yil 13 dekabr kuni yer resurslari, geodeziya va kadastr soxasida amalga oshirilayotgan isloxtatlar samaradorligini oshirish masalalariga bagishlangan yigilish materiallari. «Xalk suzi» 2017 yil 10 dekabr, № 251(6245)

4. Mirziyoyev Sh.M. Ekin va farovon, demokratik Uzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. “Uzbekiston”. 2016 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalkimiz bilan birga kuramiz. Toshkent. “Uzbekiston”. 2017 yil

#### **Axborot manbaalari**

1. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
4. [www.ziyonet/uz](http://www.ziyonet/uz)
5. [www.wikipediya.org](http://www.wikipediya.org)

